

KRIMINOLOGIK PROFAYLING – KRIMINOLOGIYANING YANGI PREDMETI SIFATIDA



Ikanov Azamat Agzamovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim

Annotatsiya. Mazkur maqolada kriminologiya fani, uning predmeti, kriminologiya va profaylingni o'zaro bog'liqligi hamda kriminologik profayling borasidagi mutaxassislarning fikrlari tahlil qilingan. Alohida e'tibor G'arbiy Yevropa, Rossiya olimlarining bu boradagi qarashlarini o'rganishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: kriminologiya, kriminologiya predmeti, jinoyatchi shaxsi, profayling, kriminologik profayling, geografik profayling, xulq-atvor, profayler

КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОФАЙЛИНГ – КАК НОВЫЙ ПРЕДМЕТ КРИМИНОЛОГИИ

Аннотация. В данной статье анализируются предмет криминологии, взаимосвязь криминологии и профайлинга, а также мнения специалистов по криминологическому профайлингу. Особое внимание уделяется изучению взглядов западноевропейских и российских ученых по данной проблематике.

Ключевые слова: криминология, предмет криминологии, личность преступника, профайлинг, криминологический профайлинг, географический профайлинг, поведение, профайлер.

CRIMINOLOGY PROFILING AS A NEW SUBJECT OF CRIMINOLOGY

Abstract. This article analyzes the subject of criminology, the relationship between criminology and profiling, and the opinions of criminological profiling specialists. Particular attention is paid to studying the views of Western European and Russian scientists on this issue.

Keywords: criminology, subject of criminology, personality of the criminal, profiling, criminological profiling, geographical profiling, behavior, profiler.

Mamlakatimizda tinchlik va osoyish-talikni ta'minlashning yangicha mexanizmlarini joriy etish, huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo'layotgan muammolarni profilaktik choralar tizimi orqali hal etish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, sodir etiladigan qonunbuzilishlari omillarini barvaqt aniqlash va ilmiy asoslangan chora-tadbirlar asosida manzilli bartaraf etish orqali jinoyatchilikning erta oldini olish tizimi samaradorligini oshirish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-yanvardagi "Jamoat xavfsizligini

ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-10-son farmoniga [1] ko'ra, mamlakatimizda Kriminologiya tadqiqot instituti tashkil etilib, faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida jahon kriminologiyasi hamda xorijiy davlatlarning kriminologik faoliyati to'g'risidagi qonunchiligi ilg'or tajribalarini doimiy ravishda o'rganish hamda natijalarini O'zbekiston Respublikasi sharoitida joriy etish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish belgilangan.

Bugungi kunda, jahon kriminologiyasida kriminologik profayling huquqbuzar shaxsini

o'rganishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xususan, kriminologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi turlicha xarakterga ega. Gap shundaki, jinoyatchilik, uning sabablari, jinoyatchining shaxsi, jinoyatlarning oldini olish vositalari ko'p qirrali muammo bo'lib, ilmiy bilimlarning ko'plab sohalari (psixologiya, pedagogika, demografiya, matematika va boshqalar) vakillarining sa'y-harakatlarini birlashtirishni talab qiladi.

Jinoyatchining shaxsi kriminologiya predmetining tarkibiy elementi hisoblanadi. Jinoyatchi shaxsini o'rganishning ahamiyati, avvalo, shundan iboratki, jinoyat inson xulq-atvori va muayyan shaxsning xohish-irodasi sifatida uning mohiyati va xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Bu borada professor V.D. Malkovanning fikri o'rinlidir, uning ta'kidlashicha, "kriminologiya – ijtimoiy-huquqiy, umumnazariy va amaliy fan bo'lib, jinoyatchilikni ijtimoiy hodisa sifatida mohiyati va namoyon bo'lish shakllarini, vujudga kelish, mavjud bo'lish va o'zgarish qonuniyatlarini, uning sabablari va boshqa determinantlarini, jinoyat sodir etuvchilarning shaxsini, jinoyatlarning oldini olish chora-tadbirlari tizimini o'rganadi [2].

O'rganilayotgan ijtimoiy hodisalarning xilmaxilligiga qaramay, kriminologiyaning fan sifatidagi asosini uning predmeti, ya'ni u aynan nimani o'rganadi, degan savolga javob tashkil etadi. Mantiq va falsafa fanlari talqiniga ko'ra, "predmet" kategoriyasi obyektning bir qismi, uning parchasi, "bilishning muayyanroq objekti" hisoblanadi. Shu bois olimlarning kriminologiya predmeti borasidagi qarashlari ham muhim hisoblanadi.

Professor Q.R. Abdurasulovanning fikricha, kriminologiya predmeti – har qanday va oddiy xulq-atvor emas, balki alohida xulq-atvor. Bu xulq-atvor jinoiy xususiyatga ega, shu bois u jinoiy xulq-atvor deb ataladi, ya'ni xulq-atvor, avvalo, jinoyat qonunini, uning normalarini buzish bilan bog'lanadi.

Kriminologiya inson xulq-atvorini o'rganuvchi boshqa tabiiy va ijtimoiy fanlardan asosan shu jihati bilan farq qiladi. Ayni shu

sababli jinoiy xulq-atvor jinoyat bilan bevosita bog'liq, chunki muayyan jinoiy qilmish sodir etilganligi tufayligina xulq-atvor jinoiy deb e'tirof etiladi [3].

Har qanday jinoyat inson xulq-atvorining muayyan ko'rinishidir. Psixologiyaga oid adabiyotlarda xulq-atvor deganda shaxsning erkin faolligi, ya'ni ko'zlangan maqsad anglab yetilgan va yuz berayotgan jarayonlarni nazorat qilish imkoniyati mavjud bo'lgan faollik tushuniladi. Subyekt uchun muayyan mazmun kasb etuvchi xulq-atvorni inson xulq-atvori deb tavsiflash mumkin [4].

O'z navbatida, profayling – dastlabki tergovda dalillar va xatti-harakatlar tahlili asosida jinoyatchining, shu jumladan, noma'lum jinoyatchining profilini yaratish uchun ishlatiladigan usul hisoblanadi.

Dastlab "profayling" atamasi jinoyat joyidagi izlar asosida noma'lum shaxsning qidiruv psixologik portretini (profilini) tuzishda qo'llanilgan [5].

Huquqbuzarning shaxsi, motivatsiyasi va ehtimoliy xususiyatlarini yaxshiroq tushunish jinoyat sodir bo'lgan joyni, jabrlanuvchining xususiyatlarini va boshqa omillarni o'rganishni o'z ichiga oladi.

O'rganilayotgan mavzu doirasida belorusiyalik tadqiqotchi V.V.Stalbovskiyning kriminologiya va profaylingning o'zaro bog'liqligi borasidagi qarashlarini muhim hisoblanadi. Uning fikricha: "Taktikasiz strategiya – g'alabaga erishishning eng sekin yo'li. Strategiyasiz taktika – mag'lubiyat oldidan shunchaki ovora bo'lishdir". Sun-Szining bu iborasini talqin qilib, strategiya so'zini kriminologiyaga, taktikani profaylingga almashtiramiz va bu gipotezaning insoniyat taraqqiyotining eng yangi davridagi voqelikka yaqinligini ishonch bilan qayd etamiz" [6].

Shu bois, nazarimizda, kriminologik prognozlash va rejalashtirish sifatining birligini tashkil etuvchi bilimlardan foydalanish orqali yuqori samaradorlikka erishiladi.

Umuman olganda, G'arbiy Yevropa va Amerika ilmiy doiralarida o'tgan asrning 80-yillaridan kriminologiya va profayling bog'liqligini o'rganish borasida qator ishlar amalga oshiriladi.

Shunga ko'ra, kriminologiya va profayling yillar davomida sezilarli darajada o'zgarib, texnologiya, psixologiya va sud-tibbiyot sohasidagi yutuqlarni o'z ichiga oldi. Bugungi kunda ham ushbu sohalar tergov usullarini takomillashtirishda davom etib, jinoiy xatti-harakatlarni tushunishga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Kriminologiya va profaylingning bog'liqligini o'rganish keng doiradagi mutaxassislarga, shu jumladan huquqni muhofaza qilish, kriminologiya yoki tergov idoralarida yetuk mutaxassisga aylanishni maqsad qilganlar uchun juda foydalidir.

Yuqoridagilarga ko'ra, profaylerlar Jek Ripper, Charlz Menson, Ted Bundi, Al Kapone va boshqa jinoyatchilar sodir etgan og'ir, o'ta og'ir yoki shov-shuvga sabab bo'lgan jinoiy ishlarni tahlil qiladilar. Bu holatlar jinoyatchilarning psixologiyasi va ularni ushlashda foydalaniladigan tergov usullari haqida tushuncha beradi.

Profayler – psixologiya, kriminologiya va kriminalistika sohasidagi mutaxassis bo'lib, mavjud ma'lumotlar asosida jinoyatchilar yoki boshqa shaxslarning xulq-atvori, o'ziga xos xususiyatlari va psixologik profilini tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Uning vazifasi jinoyatchining sodir etgan jinoyati, qoldirgan dalillari va boshqa ma'lumotlar asosida psixologik portretini tuzish hisoblanadi.

Jinoyatchi profilidan foydalanish, kriminologiya nuqtayi nazaridan, uning jinoiy portretini tavsiflovchi, jinoyatchi shaxsini tegishli identifikatsiyalashni ta'minlovchi alohida xususiyatlar va sifatlarni izlashdir [7].

Mamlakatimizda kriminologiya sohasiga ixtisoslashgan zamonaviy huquqshunoslar tomonidan "profilar" nihoyatda kam o'rganilib amaliy faoliyatda qo'llaniladi, shu bilan birga, uning kriminologiya bilan aloqalari o'rnatiladi. Mazkur yo'nalishning mamlakatimiz jinoiy-huquqiy va kriminologiya fanlaridagi yangiligi, uning ilmiy-amaliy nuqtai-nazardan tadqiq etilmagani bilan bog'liq.

Shu sababli ham O'zbekistonda kriminologik profaylingni qo'llash borasida izlanishlar olib borilmagan. Lekin, bizning "Turizm obyekt-

larida jamoat xavfsizligini ta'minlashda foydalanish uchun kriminologik profayling texnologiyasini ishlab chiqish" borasidagi taklifimiz O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kriminologik faoliyatni ilmiy ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 24-iyuldagi 445-son qarorida inobatga olinishi muhim ahamiyatga ega, deb hisoblash mumkin [8].

G'arb kriminologiyasida o'tgan asrning oxiridan boshlab ko'plab davlatlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan profillarning keng va murakkab tuzilishini ishlab chiqishgan.

Bundan tashqari, geografik profaylingga asoslangan, ya'ni "kriminogen geohududlar" – ularning hududida jinoyat sodir etilishi ehtimoli yuqori bo'lgan joylarni aniqlash orqali geografik profaylingni qo'llash ham ilmiy va amaliy qiziqish uyg'otadi. Xususan, mazkur yo'nalishda Xitoy Jamoat xavfsizligi vazirligi Jamoat xavfsizligi xalq universitetida bu borada qator izlanishlar olib borilmoqda.

Ushbu yo'nalish doirasida profaylerlar jinoyat sodir etilganidan keyin jabrlanuvchilar aniqlangan joylarni, yashash joylarini, jinoyatchi tomonidan ularning ehtimoliy kuzatuv yo'nalishlarini o'rganadilar, bu holatlar birgalikda jinoiy-viktimologik aloqani tashkil qiladi.

Shunday qilib, kriminologik profayling bugungi kunda keng qamrovli, xususan, kriminologik razvedka doirasida, ayniqsa, terrorchilik harakatlari va boshqa ommaviy jinoyatlarning oldini olishda qo'llanilmoqda.

Kriminologik profaylingdan foydalanish hozirgi vaqtda tergov qilinayotgan bir xil jinoyatlarni sodir etgan potensial jinoyatchilarni qidirish bo'yicha razvedka tadbirlarini o'tkazishning muhim tayyorgarlik sharti bo'lib, ma'lum bir hududdagi umumiy jinoiy vaziyatni bashorat qilishga yordam beradi.

Yuridik fanlar nomzodi S.G. Dzikonskaya-ni fikricha, kriminologik profayling deganda, jinoyat sodir etgan shaxsning voqea joyida topilgan izlarini aniqlash imkonini beradigan psixologik profilini shakllantirish tushuniladi. Bu huquqni muhofaza qilish organlariga uni qidirishda yordam berish uchun profayler mutaxassislar tomonidan tuziladi [9].

Hozirgi vaqtda ko'plab rivojlangan davlatlarda kriminologik profayling o'ta shafqatsizlik bilan jinoyat sodir etgan seriyali qotillarni aniqlash uchun qo'llaniladi. Bunda noma'lum jinoyatchining portreti yaratilib, u to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar kiritiladi hamda uning shaxsi va ehtimoliy turgan joyini aniqlash imkoni yaratiladi.

Kriminologik profayling asosida jinoiy xulq-atvor sabablarining antropologik va bixevioristik konsepsiyalari yotadi. AQSHda FQB tuzilmada bixevioristika bo'limi (Behavioral Science Unit) faoliyat ko'rsatadi, bo'limning asosiy vazifasi – dalillarni tahlil qilish va o'ta shafqatsizlik bilan bir qator qotilliklarni sodir etgan jinoyatchilarning psixologik portretini tuzish hisoblanadi.

Masalan, mazkur bo'lim FQB profayllariga har yili 300 ga yaqin jinoyat ishi kelib tushadi. Ushbu tuzilmada 80% gacha jinoyat ishlari fosh etilishiga muvaffaq bo'linadi.

Bunday muvaffaqiyatli faoliyatning muhim omili shundaki, 67% hollarda yaratilgan psixologik portret jinoyatchining haqiqiy qiyofasiga mos keladi.

Rossiyalik olim V.M. Statniyning ta'kidlashicha: "Zamonaviy kriminologiya ta'limotida

profayling kengroq mazmun kasb etib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tashqi ko'rinish va xulq-atvorning eng ma'lumotli belgilari, xususiyatlarini tahlil qilish asosida inson xulq-atvorini baholash va bashorat qilish usullari va uslublari majmui;

- potensial xavfli shaxslarni aniqlash maqsadida yo'lovchilarni kuzatish va so'rov o'tkazish texnologiyasi (aeroportlarda, temiryo'l, dengiz, daryo, avtovokzallarda va boshqalarda);

- amaliy psixologiya usullaridan foydalanigan holda potensial xavfli shaxslar va vaziyatlarni aniqlash orqali g'ayriqonuniy harakatlarning oldini olish texnologiyalari.

Olim tor ma'noda profaylingni muayyan subyektning rejalashtirilayotgan huquqqa xilof xatti-harakatga ehtimoliy aloqadorligini aniqlash tizimi sifatida ko'rib chiqishni taklif etadi.

O'rganishlarimiz natijasiga ko'ra aytish mumkinki, mamlakatimizda kriminologiya fanini yanada rivojlantirish maqsadida kriminologik profaylingni kriminologiyaning predmeti sifatida belgilash hamda ushbu yo'nalishdagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni jadallashtirish lozim.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-yanvardagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-10-son farmoni. <https://lex.uz/docs/6755597>
2. Малкова В.Д. Криминология: Учебник для вузов / Под ред. проф. В.Д. Малкова. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: ЗАО «Юстицинформ», 2011. – С.7.
3. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya: Darslik / Mas'ul muharrir yu.f.d., prof. M.H. Rustambayev. –T.: TDYUI nashriyoti, 2008. – 5-b.
4. Хеккхаузен Х. Мотивация и деятельность. Том 1. – М., 1986. – С. 14.
5. Qodirov M.S. Jinoyatchi shaxsining psixologik portretini yaratishda profayling texnologiyasini qo'llash imkoniyatlari//O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi. – 2023. – №3(58). – B.168–169.
6. Стальбовский В.В. Криминологический профайлинг – новый предмет криминологии (Уголовной социологии) // Уголовное право: проблемы, поиски, решения : материалы Международной науч.-практ. конференции, Минск, 7–8 октября 2022 г. – Минск: БГУ, 2022. – С. 130.
7. Тепляшин П.В., Назмутдинова Р.Р., Приставка Е.Е. Криминологический профайлинг: Теоритические контуры и направления применения // Научный компонент, 2022. – №3 (15). – С. 67.
8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Кримнологик фаолиятни илмий таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида" 2024 йил 24 июлдаги 445-сон қарори. <https://lex.uz/uz/docs/7034904>
9. Дзиконская, С.Г. Криминологический профайлинг: понятия и виды // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2015. – № 4. – С. 93–95.